SAMARQAND VILOYATI URGUT TUMANI HOKIMINING QARORI

Urgut shahar, Navoiy shoh ko'chasi 104-uy.

2022 - yil 13 - sentabr 291-7-105-Q/22 Urgut tuman hokimligi

Urgut tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida “Yuqori Kalandar” mahallasiga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Urgut tumani “Yuqori Kalangar” mahallasi hududdagi aholining murojaati va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi 2022-yil 15-avgustdagi 417-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va maqullansin.

2. Urgut tumani hududidagi “Yuqori Kalangar” mahallasi S.Raximov, A.Shukuriy ko‘chalarida fuqarolar ko‘p to‘planadigan joy bo‘lganligi va ta’lim muassasalari yaqin bo‘lganligi bois O‘zbekiston Respublikasi davlat

standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy notekisliklar, shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori talablari asosida sun’iy yo‘l notekisliklari o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Tuman ichki ishlar boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Xolmonov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (X.Yarbabayev) mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4.Tuman hokimligi matbuot kotibi (A.Ziyodov), “Urgut sadosi” gazetasi bosh muharriri (Sh.Sanayev) ushbu qarorni “Urgut sadosi” gazetasida nashr etilishi, hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Aliqulov zimmasiga yuklatilsin.

tuman hokimi v.v.b **B.Jabborov**